

BUYUK IPAK YO'LINING BUGUNGI KUNDA QAYTA TIKLANISHI VA JAHON MAMLAKATLARINING O'ZARO ALOQALARI

Abdullayev Azimjon Ashurvoy o'g'li

NamDU tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7189230>

Xitoy – Buyuk ipak yo'li iqtisodiy tasmasi konsepsiyasi asoschilaridan biri sifatida Xitoy Xalq Respublikasi bugungi kunda jahon iqtisodiyotida o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lgan dunyoning AQSHdan keyingi ikkinchi raqamli mamlakati hisoblanadi. Xitoy Xalq Respublikasi bugungi kunda dunyoning 200 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini olib borishi bilan birga rivojlanayotgan mamlakatlar orasida eng kuchli iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan mamlakat hisoblanadi. 1978-yildan boshlab Xitoy hukumati tomonidan malgama oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatning iqtisodiy salohiyati yuklalisga erishdi. Jahon xo'jaligida o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lib borayotgan Xitoy Xalq Respublikasi so'nggi 30 yil davomida yillik o'rtacha 9% iqtisodiy o'shish ko'rsatkichiga ega bo'lishi bilan birgalikda bir qator makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda ham jahonda yetakchi mamlakatlar qatoriga kirishga muvoffaq bo'ldi. Jumladan, Xitoy tashqi savdosi tezkor sur'atlar bilan o'sib bordi. Buning isbotini quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi jadval orqali 1998-2017-yillar davomida Xitoy tashqi savdosi barqaror ravishda o'sib borgan bo'lsa, 2015-2016-yillar davomida bu ko'rsatkich pasayganligini guvohi bo'lamiz. Ammo, 2017-yilga kelib Xitoy tashqi savdo hajmi yana oldingi yilga nisbatan o'shishni ko'rsatib, 3703,1 milliard dollarga yetgani bugungi kunda va kelajakda Xitoy tashqi savdosi yana o'sishda davom etish ehtimolini ko'rsatib beradi. Xitoy iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlash maqsadida hukumat tomonidan 1953-yildan buyon milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarig bag'ishlangan 5 yillik rejalari qabul qilinadi. 2016-2020-yillarda esa Xitoyda 13-besh yillik rejalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Xitoy iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalarini ta'minlashda "Hukumat tashabbusi" nomli bo'limda bugungi kunda dolzarb muammo hisoblangan "Bir makon, bir yo'li" loyihasi ham o'rin olgan. Xitoy hukumati tomonidan nashr etilgan ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda "Bir makon, bir yo'l" loyihasidagi mamlakatlar bilan savdo hajmi Xitoy tashqi savdosining 25% qismini, ushbu mamlakatlardan 49 tasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 18.2% (yiliga 14.8 milliard dollar)ga oshganligi ta'kidlandi. Shuningdek, "Bir makon, bir yo'l" loyihasi Xitoy va xorijiy kompaniyalar oldiga quyidagi imkoniyatlar eshigini ochib beradi: - Ushbu tashabbusning boshlanishida rejaning malgama oshishi va infrastruktura ob'yektlarining modernizatsiyasini ta'minlashda, savdo hamda

investitsion oqimlarning ko`lamini oshirish. - “Xitoy-ASEAN”, “Xitoy-Yevropa” hamda “Xitoy-Rossiya” kabi 3ta yirik iqtisodiy guruhlar va xalqaro shartnomalar bilan hamkorlikda infrastrukturaviy hamda investitsion loyihalarni malgam oshirish. - “Bir makon, bir yo`l” konsepsiyasi doirasidagi loyihalarda umumiy talab, ishla chiqarish hajmi, sanoat uskunalari, qurilish materiallari va xizmatlar shuningdek, moliyaviy hamda sug`urtaviy xizmatlar sifatini yaxshilash.

Tashabbusning amalga oshishi natijasida Xitoy kompaniyalariga yangi bozorlarning ochilishi milliy iqtisodiyotning o`shishiga xizmat qilishi. - Ushbu konsepsiya doirasida Xitoy kompaniyalar hamda xorijiy kompaniyalar o`rtasidagi zasavdo aloqalar zanjirida ishlab chiqarishni lokalizatsiyalashtirish ishlari amalgam oshiriladi. Bundan tashqari, Xitoyning 13-besh yillik rejalari dasturida tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada takomillashtirish uchun 2 ta asosiy g`oya ilgari surildi. Bular:

1. “Ishlab chiqarish quvvatini oshirishdagi xalqaro hamkorlik”

2. “Rivojlanayotgan bozor sharoitlaridagi hamkorlik”

Yuqoridagi ikki asosiy yo`nalish ham “Bir makon, bir yo`l” loyihasi asosida malgam oshirilishi Xitoyning tashqi iqtisodiy siyosatida bugungi kunda ushbu loyiha muhim ahamiyat kasb etayotganidan dalolat beradi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitarida Xitoy jahon xo`jaligiga integratsiyalashuv jarayonlarini jada sur`atlar bilan davom ettirib kelayotgan Rivojlanayotgan mamlakat hisoblanadi. Bugungi kunda Xitoy hukumati tomonidan dunyo mamlakatlari integratsiyalashuv jarayonlarini yangi bosqichga ko`tarish maqsadida “Buyuk Ipak yo`li Iqtisodiy tasmasi” konsepsiyasi ilgari surilmoqda. Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning 2013-yil sentabr oyida Markaziy Osiyo mamlakatlari safari davomida iqtisodiy jihatdan ulkan loyihaning taklifi Qozog`istonning Astana Shahrida Nazarboyev nomidagi univesitet talabalari bilan bo`lgan suhbatda Xitoy rahbari tomonidan keng jamoatchilikka namoyish etildi. Si Szinpin nutqida “Buyuk Ipak Yo`li iqtisodiy tasmasi” loyihasini dunyo mamlakatlari bilan birgalikda barpo etish taklifini kiritdi. Hamda ushbu loyiha qadimgi ipak yo`lini qayta tiklash va dunyo mamalakatlari o`rtasidagi iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qilishini ta`kidladi. Si Szinpin o`z nutqida bir qator ustuvor vazifalarni amalgam oshirish orqali Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo hamkorlik munosabatlarini yangi bosqichga ko`tarishni taklif etdi. Si Szinpinning nutqidan quyidagi takliflar joy olgandi:

- o`zaro dos`stona aloqalarni saqlash, yangi asrlar davomida qo`shnichilik aloqalarini rivojlantirish - mamlaktlar bir-birini qo`llab-quvvatlashi hamda o`zaro ishonch - ishonchli iqtisodiy-siyosiy hamkorlik - mintaqaviy aloqalarni

rivojlantirish orqali yangi marralarni zabt etish - Siyosiy hahjihatlilikni mustahkamlash - Yagona transport tarmog`ini barpo etish - Savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish - Mamalakatlar o`rtasida capital aylanmasi miqdorini orttirish - Madaniy aloqalarni rivojlantirish Yuqoridagi takliflar Markaziy Osiyo mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan strategic hamkori hisoblangan Xitoy manfaatlarini ko`zlashi bilan birga, Xitoyning mintaqa mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

2013-yilning oktabrida XXR raisi Si Szinpin hamda bosh vazir Li Keqianglarning Janubiy Sharqiy osiyo mamlakatlariga uyushtirgan rasmiy tashriflaridan so`ng Osiyo Infrastruktura va Investitsiya banki tashkil etildi. Bundan 18 oy o`tgach dunyoning 57 mamlakati ushbu bankka a`zolikka qo`shish taklifini kiritdi, ushbu bankning aktivlari qiymati 100 milliard dollarga yetkazilishi maqsad qilingan edia. Osiyo Taqaqiyot Bankining ma`lumotlariga ko`ra infrastruktura sohasini moliyalashtirish mablag`lari 2010-2020-yillar davomida 8,3 trillion dollarga etkazilishni talab etadi. Bugungi kunda Osiyo Infrastruktura va Investitsiya bankining 3.33 trillion dollar xorijiy mablag`lari Xitoy firmalari tomonidan moliyalashtirilib kelmoqda. Bundan tashqari, Xitoy ushbu loyihaning asschilaridan biri sifatida "Ipak Yo`li Fondi"ning asoschisi hisoblanadi. Ushbu fond "Bir makon, bir yo`l" loyihasini malgam oshirilishida muhim ahamiyat kasb etaadi. 2014-yil noyabr oyida XXR raisi Si Szinpinning so`zlariga ko`ra ushbu fond 2015-yilning fevral oyidan boshlab o`z operatsiyalarini amalgam oshirishni boshlaydi hamda fonding boshlang`ich kaitali 40 milliard dollarni tashkil etadi. Ushbu Fond Tashqi Savdo Vazirligi, Xitoy investitsiya korporatsiyasi, Xitoy Eksport-Ipmort banki va Xitoy Rivojlanish banki tomonidan moliyalashtiriladi. Ushbu investitsiyalar Osiyoning Infrastuktursi, sanoati hfmda moliyaviy sohlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Ushbu yirik iqtisodiy loyihaning asoschilaridan biri hisoblangan Xitoy ma`muriy hududiy birliklari bo`ylab loyiha tarkibiga kiruvchi 65 mamlakat va dunyo mintaqalarini ichki provinsiyalar hamda avtonom rayonlarni rivojlantirish hamda ular orqali Buyuk Ipak yo`lining zamonaviy tasmasi qaysi provinsiyalardan boshlanishini ko`rishimiz mumkin. Buyuk Ipak Yo`li Iqtisodiy tasmasida Xitoyning asosiy provinsiyalari: Xitoyning eng kamida 13 ta provinsiya va hududlari ushbu loyihada ishtirok etadi. Yuqoridagi rasmda Xitoyning "Bir makon, Bir yo`l" loyihasidagi asosiy provinsiyalar dunyoning qaysi mintaqalari bilan bog`lanishini ko`rishimiz mumkin: 1) Sinzyan-uyg`ur avtonom rayoni – loyihaning asosi hisoblanadi; 2) Qinghai, Gans, Ninsia, Shansi, provinsiyalari hamda Chongching shahri- Markaziy Osiyo, Janubiy Osiy hamda G`arbiy Osiyo mamlakatlari bilan transport koridorlari orqali bog`lnadi; 3) Sichuan, Yunnan provinsiyalari-Janubiy Osiyo va Janubiy-

sharqiy Osiyo mamlakatlariga bogʻlanadi; 4) Jiangsu, Zhejiang, Fujian, Guandong, Hainan hududlari - Oʻrta yer dengiziga olib chiquvchi XXI asrdengiz Ipak yoʻliga bogʻlanadi.

2015-yil iyul oyida Xitoy Savdo Vazirligi tomonidan taqdim etilgan maʼlumotlarga koʻra, yilning birinchi yarmida Xitoy kompaniyalari “Bir makon, bir yoʻl” loyihasi mamlakatlari bilan ushbu loyiha doirasida 1401 ta shartnoma imzoladilar. Bu shartnomalarning umumiy qiymati 37,6 milliard dollarni tashkil etib, boshqa mamlaktlar bilan imzolangan shartnommalarning 43,3% qismini tashkil etadi. 2017-yil may oyida boʻlib oʻtgan “Bir makon, bir yoʻl” xalqaro forumi dunyo mamlakatlari uchun yana yangi imkoniyatlarni yaratib berdi. Hozirgi kunga qadar 100 yaqin mamlakat ushbu loyihada qatnashish istagini bildirdi. Dunyoning yirik moliyaviy Institutlari: Osiyo Taraqqiyot banki, Osiyo Infrastruktura va Investitsiya banki, Yevropa Rekonstruksiya va Rivojlanish banki, Yevropa Investitsiya banki, BRIKS rivojlanish banki, Jahon banklari Xitoy Moliya vazirligi bilan kelajakdagi istiqbolli hamkorlik loyihalar uchun memorandumlar imzoladilar. 2016-yilning oxiriga kelib, Xitoy hukumati Xitoy-Moʻgʻuliston-Rossiya iqtisodiy koridori doirasida dunyoning 39 mamlakati bilan 46 ta hamkorlik shartnomalarini imzoladi. Shuningdek, 2020-yilga qadar Xitoy Hukumati Tashqi savdoni rivojlantirish maqsadida “Bir makon, bir yoʻl” loyihasitarkibiga kiruvchi mamlakatlar bilan savdo hajmini 2 trillion dollarga koʻtarishni rejalashtirmoqda. 2006-2015-yillar davomida Xitoyning dunyo boʻyicha imzolagan shartnomalar qiymati dinamikasi (milliard dollar):

“Bir makon, bir yoʻl” loyihasi eʼlon qilingandan buyon 2017-yil 4-avgustga qadar Xitoy ushbu loyiha tarkibiga kiruvchi mamlakatlar bilan 15000 ta shartnomalar imzolashga muvoffaq boʻldi. 2016-yil davomida 8000 dan ortiq shartnomalar imzolaniib, ularning qiymati 126 milliard dollarni tashkil etgani Xitoyning jahon xoʻjaligidagi iqtisodiy salohiyatini yana ortishiga olib kelmoqda. Ushbu shartnomalar dunyoning turli mintaqa mamlakatlarida malgam oshirilishi Xitoy kapitalining jahon mamlakatlariga tobora yuqori surʼatlarda kirib borayotganligini ifodalaydi. “Buyuk Ipak yoʻli” tasmasi konsepsiyasining butun jahonga taqdim etilgandan buyon Xitoy yetakchiligida bir qacha ulkan ishlar amalga oshirildi.

Xitoy hukumati tomonidan “Buyuk Ipak yoʻli iqtisodiy tasmasi” konsepsiyaning rivojlantirilishi: 1 Sentabr: Si Szinpin tomonidan “Buyuk Ipak yoʻli tasmasi” loyihasi Qozogʻistonga tashrifi chogʻida eʼlon qilindi 2013-yil 2 Oktabr: XXR raisi “XXI asr Dengiz Ipak yoʻli” konsepsiyasi haqida ilk bor Indoneziyaga rasmiy tashrifi chogʻida taʼkidlab oʻtdi. 3 Noyabr : “Tasma va Yoʻl” Xitoy Kommunistik Partiyasining 18 sessiyasida Milliy Strategiya nomini oldi 4 May: “Tasma va Yoʻl”

Xitoy Kommunistik Partiyasining yillik yig`ilishida muhokama qilindi. 2014-yil 5 Dekabr : “Buyuk Ipak Yo`li” fondi tashkil etildi. Uning bishlang`ich qiymati 40 milliard dollar. 6 Fevral: “Tasma va Yo`l” boshqaaruv kengashi tashkil etildi. 2015-yil 7 Mart: “Ipak yo`li iqtisodiy tasmasi hamda XXI asr dengiz Ipak yo`lining tasviri hamda harakati” hujjati qabul qilindi 8 Aprel: Buyuk Ipak yo`li fondi o`zining dastlabki loyihasini qabul qildi 9 Oktabr: “Bir makon, bir yol” loyihasi harakatlanish yo`nalishlari e`lon qilindi. 10 Dekabr: Osiyo Infrastruktura va Investitsiya Banki tashkil etildi. Uning kapitali 100 milliard dollarni tashkil etdi. 11 Mart : Shinjon avtonom rayoni Buyuk Ipak yo`li loyihasi tarkibiga kiritildi 2016-yil 12 Iyun : Osiyo Infrastruktura va Investitsiya banki birinchi loyihasni qabul qildi 13 May: “Bir makon, bir yo`l” xalqaro forumi Pekinda b`lib o`tdi.

Xulosa. O`zbekistonning milliy istiqbolga erishuvchi va o`z mustaqil davlatchiligi ega bo`lishi uning oldiga keng istiqbol ufqlarini ochib berdi. Mustaqillik tufayli O`zbekiston yangidan yuz ochib jahon afkor ommasining nigohiga tushdi. Ayni chog`da u BMTning teng huquqli a`zosi sifatida turli ijtimoiy tuzumdagi davlatlar bilan o`zaro foydali, manfaatli asoslarda hamkorlik qilish, aloqalar bog`lashga muvaffaq bo`ldi. O`zbekistonning dunyo uchun ochiqligi, butun dunyoda keng ildiz otgan demokratik tamoyillarni o`zining ichki va tashqi siyosatiga asos qilib olganligi bular uning jahon mamlakatlari bilan yaqinlashuviga, ular bilan hamkorlik aloqalarining har jihatdan mustahkamla-shiga ishonchli kafolot bo`lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, ubnda Buyuk ipak yo`li an`analarini yangidan tiklash borasida hozirda jahon miqyosida olib borila-yotgan davlatlararo harakatda O`zbekistonning alohida tashabbus ko`rsatayotganli-gi boisi ham mana shundandir. Zero, qadimdan Sharq bilan G`arbni bir-biriga bog`lagan, xalqaro savdoning qaynoq, tutash nuqtasi hisoblangan O`zbekiston hududi va uning qadimiy shaharlari bugun ham mustaqil davlatimizning keng xorijiy davlatlar bilan bog`lovchi muhim vosita rolini o`ynamog`i ayni muddaodir. “Qadim zamonlarda Sharq bilan G`arbni bog`lab turgan Buyuk ipak yo`li, -deb ta`kidlaydi yurtboshimiz, O`zbekiston hududi orqali o`tgan. Bu yerda savdo yo`llari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlarning bir-birini boyitish jarayoni jadal kechgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo`llar shu yerda kesishadi”.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. - 53 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. -Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

3. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 28 б.
4. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 484 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.-Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.-592 б.
6. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.-592 б.
7. Abduxaliq Abdurasul o'g'li. "Ipak mamlakati" haqida // O'zbekiston tarixi moddiy madaniyat va yozma manbalarda: Akad. A. Asqarov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan ilmiy anjuman materiallari. – Toshkent, 2005;
8. Abu Tohirxoja. Samariya. (Forschadan Abdulmo'min Sattariy tarjimasini) / To'plam. – Toshkent: Kamalak, 1991;
9. Avesto. Asqar Mahkam tarjimasini. – Toshkent: Sharq, 2001;
10. Agzamova G. A. Savdo yo'llari // Temur va Ulug'bek davri tarixi.